

## O‘ZBEKISTON ZAMONAVIY MASJIDLARIDA ARHITEKTURA VA BEZAK TURLARI: STILISTIK VA FUNKSIONAL YONDASHUVLAR

Maftuna Kalbayeva – o‘qituvchi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

**Tayanch so‘zlar:** diniy inshoot, amaliy bezak, xattotlik, arxitektura, interyer.

**Ключевые слова:** религиозное сооружение, прикладной орнамент, каллиграфия, архитектура, интерьер.

**Key words:** religious structure, applied ornament, calligraphy, architecture, interior.

Mustaqillik diniy erkinlikni bergan davr edi. Taxminan 1960–1970-yillarda masjidlar qurish ta‘qiq ostida bo‘lib, insonlar eski qurilgan masjidlardan yoki biror odamning xonadonidan ibodat amallarini ado qilish uchun foydalanganlar. Ammo diniy erkinlik paytigacha ko‘plab masjidlar turli sabablar bilan buzilib ketgan. Mustaqillik esa masjidlarni gurkirab yashnashiga, arxitekturasi bilan bog‘liq bo‘lgan san‘at turlarini rivojlanishiga turtki bo‘lgan davr hisoblanadi. O‘zbekiston me‘morligida klassitsizm uslubiga xos xususiyatlar asosiy o‘rin tutadi. MDH me‘morligida ham shu holat kuzatiladi. O‘zbekiston me‘morligiga xos bu jihat xalqaro miqyosda ham e‘tirof qilinadi. Lekin mamlakatimiz me‘morligida klassitsizm bilan birga yana boshqa o‘nlab uslublar ham mavjud. [1] Ushbu uslublarni bugungi zamonaviy hayotda qurilayotgan masjidlar arxitekturasida ham ko‘rish mumkin. Masjidlar qurilishi XX asrda to‘siqlarga uchrab, 1990-yillar boshlarida davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi va Allohning baytini obod

qilishga haris bo‘lgan kishilarning hashari, fidokorona mehnatlari evaziga amalga oshirila boshladi. Umumiy hisobda O‘zbekiston bo‘yicha 2101ta masjidlar mavjud. [2] Viloyat masjidleri asosan mustaqillikgacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston viloyatlarida yangi barpo bo‘layotgan masjidleri soni sanoqli darajada. Ko‘plab eski masjidlar qayta tiklanib, yoki butunlay ta‘mirdan chiqmoqda. Andijon viloyatida 183ta masjid bo‘lib, deyarli barchasi oldingi davrlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu viloyatda so‘nggi yillarda Asaka shahridagi “Hazrati Usmon” jome masjidi (2019) va Bosh jome (Devonaboy) masjidi (2021) yangidan barpo bo‘ldi. “Hazrati Usmon” jome masjidi loyihasi milliy va zamonaviy masjidlarning me‘moriy uslubleri uyg‘unligida barpo bo‘ldi. Masjidga kiraverish peshtoqida va masjid ichkari qismidan o‘rin olgan mehrobda Qo‘qon naqsh maktabi va Tabriz naqsh san‘ati namunalaridan foydalanilgan kompozitsiyaga ko‘zimiz tushishi mumkin.




(1-rasm)

Ushbu amaliy bezak san‘ati asarlariga xattotlik namunalari o‘zgacha go‘zallik baxsh etib turibdi. Asosiy xonaqoh birmuncha baland qurilgan bo‘lib, pastki qismi yerto‘la sifatida ikki qavatli masjid qiyofasini ko‘rsatadi. Yuqori va pastki qismdagi asosiy xonaqoh 700 dan ortiq namozxonni sig‘dirsa, tepa qismi yopilgan keng hovlida ham 300-400 namozxon ibodat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bosh jome (Devonaboy) masjidi esa ilk bor 1899-yilda qurilgan bo‘lib, uning rekonstruksiya ishlari 2019-yilda boshlanib, 2021-yilning may

oylarida tugadi. Yangi masjid arxitekturasi qadimiy chor ayvon va chor darvoza uslubida qurildi. Masjidning ikki chekkasida balandligi 54 metrlik minoralar qad rostladi.

Asosiy xonaqohning tepa qismiga diametri 18 metrli gumbaz o‘rnatilgan. Oldingi masjid sig‘imi 5ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda 15 mingdan ortiq namozxonni o‘z ichiga sig‘dira oladi. Bu masjid Andijon shahridagi eng yirik va xattotlik namunalariga boy masjid hisoblanadi.



(2-rasm)

Buxoro viloyati Vobkent tumanida 2022-yil “Miri Xurd Vobkandiy” yangi jome masjidi foydalanishga topshirildi. Masjid maydoni 22 sotixdan iborat bo‘lib, o‘ziga 2500 ming namozxonni sig‘dira oladi. Yangi binoda barcha qulayliklar mavjud bo‘lib, tahoratxona, ayollar namozxonasi, Imom xatib xonasi, ma‘muriy binolar va kutubxona ham mavjud. Vobkent tumandagi eng yirik masjid hisoblanadi. Bu masjidning eng ajralib turadigan tarafi shundaki, namozxonlar masjidga joynamoz ko‘tarib kelishmaydi. 2500 namozxonga mo‘ljallangan joynamozlar har tong sahardan tayyorlab qo‘yiladi. Ushbu masjid qurilishi uchun 15milliardga yaqin mablag‘ sarflangan. Masjid arxitekturasi asosiy kirish eshigi, masjid hovlisi maxsus devorlar bilan chegaralangan.

To‘rtburchak shaklda qurilgan masjid asosiy xonaqoh va azon aytish uchun mo‘ljallangan baland minoradan iborat. Qaymoq rang masjidga xonaqoh tepasidagi asosiy gumbaz va minora tepasidagi kichik feruzarang gumbaz o‘zgacha chiroy berib turadi. Masjidning tashqi go‘zalligi uchun zamonaviy amaliy bezak naqshlaridan foydalanilgan. Kitoba yuqorisi esa bo‘rtma o‘yilgan naqshlardan iborat. Masjid ichki qismi ikki qavatdan iborat. Ichki interyerida klassik sxema saqlanib qolingan. Masjid devorlarida hamda ustunlarida zamonaviy naqshlarni ko‘ramiz. Ichkari ustunlarda naqshlar bo‘rtma xolatda bezatilgan. Masjidda xattotlik yozuvlari gumbazning ichki aylanasi bo‘ylab bitilgan va Imom minbarining tepasida uchratish mumkin. (3-rasm)



(3-rasm)

2023-yil Buxoro shahrida yana bir masjid O‘zbekiston musulmonlari idorasi boshchiligida bunyod etildi. Mazkur inshoot milliy-tarixiy va zamonaviy arxitektura tajribasi uyg‘unligida qurildi. “Dilkusho” jome masjidi murakkab arxitekturali bo‘lib, masjidga kirish eshigi ikkita. Eshik peshtoqlari va masjid tashqi devorlari koshinkorlik bilan bezatilgan. Masjidning o‘zi esa pishgan g‘ishtdan qurilgan. Asosiy eshik peshtoqining ikki yonida kitobalar mavjud uning tagida esa derazalar joylashgan. Asosiy peshtoq ikki chetida kichik minorachalarni ko‘rish

mumkin. Binoning markazida katta gumbaz va ikkinchi eshik peshtoqidan so‘ng kichik gumbaz o‘rnatilgan. Masjid interyeri o‘ta noan‘anviy uslubda bo‘lib, masjid gumbazining ichki qismi ham o‘ziga xos, boshqa masjid gumbazlaridan farq qiladi. Ichki interyerida hozirgi zamon masjidsozligi tajribasida deyarli uchramaydigan go‘zal husnixat namunalarini borligi, masjid devorlari amaliy sa‘nat asarlari bilan boyitilganligi uning ulug‘vorligini yanada oshirgan. (4-rasm)



(4-rasm)

Masjidga tashqaridan kiraverishda birinchi dahliz boshlanadi, dahlizda tahoratxona va imom xatib xonalari mavjud. Ikkinchi qavatga ko'tarilish uchun esa chetlari naqshinkor zinapoya bor. Dahliz atrofi derazalar bilan qoplangan bu derazalar tepasiga maxsus naqshlar bilan bezatilgan kitobalar tayyorlanib, kitoba tepasida esa to'g'rito'rtburchak kitobaga xattotlik bitilgan. Masjid ichkarisi esa juda yorug' va keng ko'rinadi bunga sabab, xonaqohda ko'plab turli hajmdagi derazalar mavjud. Ichki interyeri juda go'zal, buxoro uslubi sezilib turadi, oltin ranglar, naqshlarning xilma-xilligi. Xonaqoh gumbazi ichki tomondan mahorat bilan bezatilgan, gumbaz ichi turli bo'rtma naqshlarga bo'y hamda gumbaz aylanasi bo'ylab, lentasimon qilib ko'k fonga xattotlik yozilgan. Masjidning ajralib turuvchi

yana bir tomoni, lentasimon xoshiya ichiga xattotlik ishlari butun masjid bo'ylab yozib chiqilgan. Mehrob ham o'ta xashamdor, uning yonida esa Imom uchun yog'ochdan minbar mavjud. Ushbu masjidni arxitektura va bezatilish jihatidan o'ta murakkab qurilgan deb aytish mumkin.

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida 2022-yil yangi "Kamolxon eshon buva" masjidi barpo bo'ldi. Yangi masjid barpo bo'lgan hududda oldinlari masjid bo'lmagan, mahalla fuqarolari qo'shni mahallaga chiqib namoz o'qishga majbur edilar. Masjid qurilishi 2021-yil boshlanib, 2022-yil foydalanishga topshirildi. Kvadrat shaklda qurilgan masjid, an'anaviy me'morchilik strukturalarini o'zida mujassam etadi. (5-rasm)



(5-rasm)

Masjid xonaqoh tepasi markazida katta gumbaz va binoning to'rt tomonida 4ta uncha baland bo'lmagan kichik minorachalar mavjud. Masjidga kiraverish asosiy peshtoq va ikki chetida kichik peshtoqlardan iborat, ularning tagida esa masjidga kirish eshiklari o'rnatilgan. Bu uchala eshiklar xam yong'oq daraxtidan ishlangan bo'lib, an'anaviy o'ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan. Asosiy peshtoq tepasida ikki to'g'rito'rtburchak kitoba ichida xattotlik yozuvlarini ko'rish mumkin. Masjid pishgan g'ishtdan qurilgan. Masjidning gumbaziga alohida to'xtalish zarur, boshqa masjid gumbazlaridan anchagina farq

qiladi, unda zamonaviy haytek uslubini kuzatish mumkin. Gumbaz va har bir minora gumbazchalari ustida kumushrang oy shakllari o'rnatilgan. Asosiy gumbaz tag qismida aylanasi bo'ylab mahsus derazalar joylashgan. Masjidga asosiy eshik orqali kirilganda to'g'rida mehrobni ko'rish mumkin. Mehrob chetlarini zamonaviy naqshlar va bo'rtma xattotlik namunasi bezab turibdi. Mehrobning ikki chetidagi devorga ham o'ymakorlik usulida qora fonga tilla bo'yoqlar bilan xattotlik bitilgan. Masjid gumbazi ichkari qismi boshqa masjidlarga qaraganda juda sodda ko'rinishda.



(6-rasm)

Masjid zamonaviy usuldagi shiftlariga beshta zamonaviy qandillar va zamonaviy chiroqlar go‘zallik bag‘ishlab turibdi. Bu qandillarning ajralib turadigan tomoni, qandil shisha fonuschalardan iborat va bu fonuschalarga Allohning ismlari bitilgan. Shisha fonuschalarda ichidagi chiroq esa bu muqaddas ismlarga nur taratib ajoyib betakrorlik yaratadi.

Yurtimizda so‘nggi yillarda zamonaviy uslubdagi masjidlar soni ham ko‘payib bormoqda. Birinchi haytek uslubida qurilgan masjid

Namangan viloyatida “Yusufxon o‘g‘li Qosimxon” jome masjidi hisoblanadi. Masjid 2023-yil yangi barpo bo‘ldi, ushbu masjid loyihasi Turkiyalik arxitektorlar tomonidan amalga oshirildi. Bir qarashda turkiya masjidlarini eslatuvchi ushbu bino hovli markazidan o‘rin olgan. Masjidning tashqi arxitekturasi ovalsimon, asosiy xonaqoh tepasida katta oltin rang gumbaz, ikki kichik gumbaz va 2ta uzun minora qad rostlagan. (7-rasm)



(7-rasm)

Masjidning bo‘yiga uzunligi 75metr, eniga uzunligi 55metrni tashkil qiladi. Masjid ikki minorasining uzunligi 47 metr, xonaqoh markazidagi eng katta gumbaz uzunligi esa 25metr. Masjidning o‘ng tomonida tahoratxonalar, chap tomonida esa turli ilmiy-diniy konferensiyalar uchun xonalar mavjud. Bino oval shaklda qurilgani sabab, binoga kiraverish katta asosiy eshigi va aylana bo‘ylab yana ikkita eshiklar mavjud. Bu qulaylik namozxonlarni tirbandda qolib ketmasliklari, kirish va chiqish onson bo‘lishi uchun qilingan. Masjid ichkarisi bir vaqtning o‘zida 4,5ming-5ming namozxonni o‘ziga sig‘dira oladi. Masjid interyerida xattotlik faqatgina tepa gumbaz aylanasi bo‘ylab bitilgan. Mehrob ham juda kamtarona ko‘rinishda oq fonga

tilla bo‘yoqlar bilan xattotlik bitilgan. Masjidda juda katta hajmda oltin rang qandil o‘rnatilgan bo‘lib, u masjid shiftidagi soddalikni biroz yumshatib beradi. Asosiy qandil, ikki yonida esa kichik hajmli qandillarni ko‘ramiz. Ikki qavat qurilgan ushbu masjid devorlaridagi derazalar ham uzun vertikal tarzda o‘rnatilgan.

Bugungi kunda Namangan viloyatida 190ta, Buxoro viloyatida 103ta, Samarqand viloyatida 281ta, Farg‘ona viloyatida 199ta, Xorazm viloyatida 97ta, Sirdaryo viloyatida 73ta, Jizzax viloyatida 170ta, Qashqadaryo viloyatida 183ta, Surxondaryo viloyatida 96ta, Navoiy viloyatida 76ta masjid o‘z faoliyatini olib bormoqda. Toshkent viloyatida 196ta masjid mavjud bo‘lsa, shundan 20% masjidlar

mustaqillik davrida yangidan barpo etildi, qolgani esa qayta tiklandi. Yangidan barpo bo'lgan masjidlarga Qibray tumanida joylashgan "Sadulla ota jome" masjidini misol qilish mumkin. Ushbu masjid Toshkent viloyatidagi katta hajmli masjidlardan biri sanaladi. Masjid sharqona uslubda, 1993-yilda hashar yo'li bilan barpo bo'lgan. Masjid xovlisiga maxsus peshtoq orqali kiriladi. Masjid xonaqoh atrofini 4metrli ochiq ayvon o'rab turadi. Ayvon chetlarida esa uzunligi 7metrdan ortiq 12ta yog'och ustunlar o'rnatilgan. Xonaqohning to'rt tomonida 17 metrli to'rtta



minora mavjud bo'lib, minoralar o'rtasida esa katta gumbaz mavjud. Masjid ichkarisi tepa devorlarida asosan amaliy bezak san'ati namunalaridan foydalanilgan. Xattotlik yozuvi kirish peshtoqi, tashqi xonaqoh va ichki xonaqoh hamda mehrobda kuzatiladi. Viloyatning Bekobod tumanida joylashgan "Chanoq" jome masjidi ham 2020-yilda barpo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Musulmonlar idorasi tasarrufidagi ushbu masjid Tojikiston Respublikasi bilan chegara hududi oldida joylashgan.



Masjid chekka hududda joylashganiga qaramasdan, yo'lovchi va ziyoratchilar uchun o'ziga xos qulayliklar yaratilgan. Ushbu masjid o'ziga 1200 kishini sig'dira oladi. Masjid arxitekturasi kvadrat shaklda bo'lib, xonaqoh tepasida gumbaz uchun aylana shaklda joy ajratilgan. Ushbu aylana atrofi alohida nur tushirib turuvchi derazalar bilan qoplangan. Uning tepasida esa katta moviy gumbaz o'rin olgan. Masjid rangi qaymoq rangda bo'lib, moviy gumbaz bilan uyg'un xolatda. Xonaqohga kiraverish peshtoqi esa moviy koloritda amaliy san'at bezaklari va xattotlik bilan bezatilgan. Ichki interyerda xattotlik ishlari faqat mehrobda ko'rinadi. Mehrob atrofi bo'rtma naqshlar va uning tepasida bo'rtma xattotlik bitigi bilan boyitilgan. Ushbu bitiklar xattot N.Tursunaliyev eskizlari asosida amalga oshirilgan. Masjid ichki interyeri har tomoni baland derazalar bilan qoplanganligi uchun uning hajmini kattaroq va xonaqoh ichini yanada kengroq ko'rinishiga yordam bergan. Masjidda zamonaviy tahoratxona, ayollar uchun alohida namozxona va tahoratxona, hamda yosh go'dakli ayollar uchun maxsus xonalar qurildi. Bo'stonliq tumanida "To'g'anoy

ota jome" yangi masjidining ochilish marosimi 2022-yil 21-oktyabr aynan juma kunida bo'lib o'tdi. Ushbu masjid xonaqohi 475 metr kvadratni tashkil etadi, bir vaqtning o'zida 1,3 ming namozxonni o'zida sig'dira oladi. Masjidda to'rtta kichik gumbaz, asosiy katta gumbaz va 39 metrli minora qad rostlagan. Masjid koloriti oq rangda bo'lib, uning ulug'vorligini yana oshirgan. Ushbu masjidda ayollar uchun ham alohida namozxona mavjud. Masjidni me'moriy-loyihaviy va dizaynerlik yechimlarida ham mukammal deyish mumkin. Toshkent viloyatida qayta tiklangan masjidlarga Zangi ota tumanida joylashgan "Do'rmon" jome masjidini kiritish mumkin. Do'rmon masjidi eskitdan mavjud bo'lib, uning birinchi ta'mirlash ishlari 2004-yilda boshlanib, 2007-yilda tugatilgan. Oradan vaqtlar o'tib masjid qarovsiz xolatga kelib qolgani bois, 2010-yilda takror qayta ta'mirdan chiqdi. Masjidning tashqi peshtoqi va masjid ichkari bitiklari qaytadan ta'mirlandi. Ushbu yozuv ishlarida xattot N.Tursunaliyev ustoz B.Nig'monov bilan ishtirok etdi. Masjidga tashqi darvoza orqali kiriladi. (8-rasm)



(8-rasm)

Darvoza devorlarida moviy fonda rangli naqshlar va bitiklarni ko‘rish mumkin. Ushbu qalin devorning ikki chekkasida esa ikki kichik gumbaz mavjud. Masjid keng hovliga ega. Xonaqoh tepasida o‘rtacha hajmda gumbaz mavjud. Xonaqoh atrofi keng derazali ayvon bilan o‘ralgan. Masjid interyerida oq, tilla rang, och yashil ranglarni uchramiz. Masjid ichkarisidagi ustunlar tepasida, mehrob hamda gumbaz ichki aylanasida bitiklar mavjud. Zangiota tumanida joylashgan “Zangiota” masjidi-Vazirlar mahkamasining 2013-yil 20-oktyabrdagi 322-sonli qarori asosida Zangiota majmuasi va unga yaqin hududlarni obodonlashtirish, majmuani qayta tiklash chora tadbirlari ko‘rildi. Majmua hududida 1000 kishiga mo‘ljallangan yangi masjid hamda 40 o‘rinli tahoratxona bunyod etildi. Yangi loyihaga asosan majmuaga kirish darvozasi qayta qurildi, Qadimgi madrasa binosi to‘la ta‘mirdan chiqarildi. Majmua hovlisidagi eski minora olib tashlanib, balandligi 31metr bo‘lgan minora qurildi. Zangiota va Anbarbibi maqbaralari yangidan ta‘mirdan chiqdi. Majmuadagi 5ta gumbaz ham qaytadan tiklandi.

O‘rtachirchiq tumanida “Tuyabo‘g‘iz jome” masjidi 2012-yil aholi tashabbusi bilan qayta tiklandi. Bu masjidning barchasida xattotlik namunalari mukammal darajada ishtirok etgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston zamonaviy masjidlarida arxitektura va bezak san‘ati sohasida an‘anaviy me‘moriy uslublarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashuvi kuzatilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, diniy inshootlarning stilistik hilma-xillik, funksional qulaylik va estetik uyg‘unlikga erishish maqsadida yangi qurilish materiallari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ommalashmoqda. Shu bilan birga, milliy bezak hisoblanmish ganchkorlik, o‘ymakorlik va xattotlik namunalari masjidning badiiy va ma‘naviy mohiyatini boyitishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy masjidlar nafaqat diniy-amaliy funksiyani bajarmoqda, balki madaniy-ma‘naviy markaz sifatida ham ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynamoqda. Bu holat zamonaviy jarayonda, Yangi O‘zbekiston me‘morchiligida diniy san‘atning yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. III.Асқаров. “Ўзбекистон меъморлиги инновациялар йўлида” Санъат жур. 2/2016. 10-бет.
2. А.Хақимов. “Тошкент замонавий масжидларининг бадий кифаси рух, макон, услуб” Санат жур.2020/2 17-бет.
3. Г.Вахобова. “Тошкентда янги барпо этилган масжидларнинг ганчкорлик безаклари” Санъат жур.2021. 40-бет.
4. <https://masjid.uz/>

**REZYUME.** O‘zbekiston klassik me‘morligi butun dunyoni hayratda qoldirgan. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida barpo etilgan masjidlar arxitektura va bezaklaridagi mohiyat san‘atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Diniy inshootlarda an‘anaviy islomiy me‘morchilik uslublari bilan zamonaviy dizayn elementlarining uyg‘unligi, xattotlik yozuvlarining jihatlarini o‘rganilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy masjidning fasad va interyer bezaklarida qo‘llanilayotgan materiallar, amaliy bezak naqshlari tahlil etiladi.

**РЕЗЮМЕ.** Классическая архитектура Узбекистана поражала весь мир своей самобытностью. В данной статье с искусствоведческой точки зрения проводится анализ архитектуры и декоративного оформления мечетей, возведённых в эпоху Нового Узбекистана. Исследуется гармоничное сочетание традиционных исламских архитектурных стилей с элементами современного дизайна, а также особенности каллиграфических надписей в религиозных сооружениях. В процессе исследования

рассматриваются материалы, используемые в оформлении фасадов и интерьеров современных мечетей, а также орнаментальные элементы прикладного искусства.

**SUMMARY.** The classical architecture of Uzbekistan has astonished the world with its uniqueness. This article analyzes, from an art historical perspective, the essence of the architecture and decorative elements of mosques built during the era of New Uzbekistan. It explores the harmony between traditional Islamic architectural styles and modern design elements, as well as the characteristics of calligraphic inscriptions in religious structures. The research examines the materials used in the decoration of façades and interiors of contemporary mosques, along with applied ornamental patterns.

## IJTIMOIIY MADANIYATDA XOTIN-QIZLARNING O'RNINI

**Shahnoza Rustamaliyeva** – *tayanch doktorant*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiy madaniyat, xotin-qizlar, ijtimoiy faollik, olim ayollar, gender tenglik.

**Ключевые слова:** социальная культура, женщины, социальная активность, женщины ученые, гендерное равенство.

**Key words:** social culture, women, social activism, women scientists, gender equality.

*“Oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga,  
zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lsa,  
xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi”.*

**Sh.Mirziyoyev.**

### KIRISH

Har qanday jamiyat va davlatning nechog'li insonparvar hamda adolatli ekanligi uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi.[1] Mamlakatimizda ham xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, uzoq yillar davomida xotin-qizlar masalasiga kompleks yondasha olinmadi. Afsuski, bu kabi holat hamon mavjud bo'lib, yordamga muhtoj xotin-qizlar muammosi baribir jamiyatning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. Bugungi kungacha ayollar muammolarining oqibati bilan ishlab kelindi endilikda esa, ularning oldini olish muhimroq ekanligini englab yetdik.

Natijada, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy follingini ta'minlash yo'nalishida 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Bugun yurtimizda xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ularning jamiyatdagi faolligini ta'minlash maqsadida ularning ta'limiga katta e'tibor qaratilmoqda. Sababi davlat va jamiyat taraqqiyoti ilm-ma'rifatli fuqarolarga bog'liq. Ma'rifatli jamiyatni esa millat

onalari tarbiyalaydi. Ta'lim sohasini rivojlantirish yo'lida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli farmoniga ko'ra, xotin-qizlarning magistraturada o'qishi to'liq davlat granti hisobiga amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi. Farmonga muvofiq, har yili davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalash tizimi yo'lga qo'yildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Xotin-qizlar ta'limini qo'llab quvvatlash maqsadida 2023/2024-o'quv yilidan ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilindi. Buning uchun, 2022-yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, 2023 va kelgusi to'rt yilda 8 trillion so'm mablag' ajratilishi belgilangan. Shuningdek, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab berilishi, ehtiyojmand oila vakillari, otasi yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanishi yo'lga qo'yildi. Jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilmoqda[2]. Magistraturaga o'qishga kirgan xotin-qizlarning o'qishi esa, to'liq davlat hisobidan byudjet asosida amalga oshirilmoqda.